# BOLALAR SPORTINI RIVOJLANTIRISH SOG'LOM KELAJAK POYDEVORI

10.53885/edinres.2022.14.26.008

**Ataxo'jayev Valixo'ja**
**Toshkent Davlat Agrar institute Andijon fioloiya ''O'zbek tili va adabiyoti'' kafedrasi dotsenti**

Ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida tub isloxotlar amalga oshirilayotgan hozirgi davrga kelib cog'lom avlodni voyaga etkazishda sport va jismoniy tarbiya yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Mustaqil O'zbekistonimizning kelajagi bo'lgan yoshlarga keng imkoniyatlar, sharoitlar yaratib berish, ularga to'g'ri yo'l ko'rsatish, manaviyatli, jismoniy baquvvat qilib tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muommolari hisoblanadi. Xalqimizning jismonan barkamol, baquvvat, oilasi, farzandlariga mehr ko'rsatadigan kerak bo'lsa, el-yurt, millat ozodligi yo'lida jon olib, jon berishga qodir fidoiy farzandlarini sanab sanog'iga etib bo'lmaydi. Dostonlarimizdan o'rin olgan Alpomish, Barchinoy, To'maris, Farhod kabi jasur qahramonlarimiz milliy g'ururimizga aylanib ulgurishgan. Albatta, bunday alpqomat yigit-qizlar birdaniga o'z-o'zlaridan baquvvat, jasur bo'lib qolmaydilar. Mutaxasislarning fikricha, insondagi jasurlik, mardlik tug'ma xarakterga ega bo'lishi mumkin. Lekin, kuchlilik, tezlik, chidamlilik kabi sifatlar mashqlar orqali tarbiyalanishi tadqiqotlarda ko'rsatib o'tilgan. Jahonga mashhur buyuk davlat arboblari va sarkardalar Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Bobur, Mirzo Ulug'bek nafaqat o'zlari pahlavonlik, mardlik, adolatparvarlik, insonparvarlik, ilm-fan bobida o'rnak bo'lganlar, balki o'z askarlari, bo'lajak el-yurt himoyachilarini yoshlikdan tarbiyalab borish kerakligiga alohida e'tibor qaratganlar.

Bashariyat sivilizatsiyasi va uning porloq kelajagiga beqiyos hissa ko'shgan Beruniy, Ibn Sino, Forobiy, Navoiy kabi ko'pdan-ko'p olimu-allomalarimiz hamda din ilmida dong taratgan olamga mashhur Al-Buxoriy, N.Kubro, A.YAssaviylar ham yoshlarga ma'naviy va jismoniy tarbiya bo'yicha saboq berish kerakligini ta'kidlaganlar. O'zbekiston Respublikasi Xalq talimi vazirligi xuzuridagi bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi mamlakatimizning barcha xududlarida, birinchi navbatda qishloq joylarida bolalar jismoniy tarbiya va sportining moddiy bazasini shakllantirish va mustahkamlash, umumtalim maktablari qoshida va aholi yashash joylarida zamonaviy bolalar sport komplekslari tarmog'ini barpo etish, ularni zamonaviy sport uskunalari, hamda anjomlari bilan jihozlash, ulardan samarali foydalanishni ta'minlashning asosiy faoliyat yo'nalishlaridan biri bo'lib xizmat qiladi. SHu nuqtai-nazardan qaraganda, jismoniy va ma'naviy jihatdan etuk avlodni tarbiyalash bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyatining asosiy maqsadidir. Bugun bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi faoliyati joylarda qanday samara berayapti degan savolga aynan qishloq maktablarida yoshlarni sportga jalb qilish masalasi nazaridan baho berilishi kerak. Xaqiqatdan ham sportning inson va oila hayotidagi roli, uning jismoniy sog'lomlikning asosi ekanligi, hayotga mustaqil qadam tashlayotgan yoshlarga o'z qobiliyat va iste'dodini ro'yobga chiqarishdagi ahamiyati kattadir.

O'tgan vaqt mobaynida jamg'arma o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarning ahamiyatini nafaqat joylarda sportni rivojlantirish timsolida, balki muayyan ijtimoiy muammolarni hal etish yosh avlodni komil insonlar etib tarbiyalash farzandlarimizning imon irodasini mustahkamlash, mustaqil dunyo qarashini shakllantirish, ularning dunyoqarashida vatanga sadoqat va el-yurtga mehr-muhabbat tuyg'ularini qaror toptirishdek yuksak maqsadlarimizni ro'yobga chiqarishda ko'maklashib turibdi. Sport farzandlarimizning xarakterini toblaydi, qalbida o'z xalqi, yurti bilan faxrlanish tuyg'ularini shakllantiradi. Sportga yoshlikdan ixlos qo'yib, uning sir-asrorlarini o'rganish, mashaqqatli mashg'ulotlarda o'zini chiniqtirish, irodasini toblash, mardlik va matonat, o'z-o'zini engish, o'z oldiga qo'ygan maqsadlarga erishish uchun bor kuch-g'ayratini safarbar etish kabi xususiyatlarni kamol toptirishda boalar sportini rivojlantirish millionlab yoshlarimiz uchun imkoniyatlar ochmoqda.

Sog'lomlashtirishga yo'naltirish prinsiplari bolalar sog'lig'ini mustahkamlashga qaratilgan vazifani bajarishdan iboratdir. SHu munosabat bilan jismoniy mashqlarni tanlash vaqtida profilaktika maqsadida emas, bola organizmini har tomonlama sog'lomlashtirish, ayniqsa uning jismoniy sifatlarini rivojlantirish maqsadi nazarda tutiladi. Bu vazifalar boladagi ijobiy his-xayajon va hayotdan zavqlanish tuyg'ularini qo'llab-quvvatlash tadbirlari bilan birga qo'shib olib boriladi. SHunday ekan, yuqoridagi fikrlarni jamlab, xulosa qiladigan bo'lsak, barchamiz sport sohasini, jumladan bolalar sportini rivojlantirishga o'z hissamizni doimiy ravishda qo'shib, sog'lom kelajak poydevorini yaratish maqsadida birlashib xarakat qilmog'imiz kerak. CHunki, kelajak avlodimiz sog'ligi yo'lidagi ishlarimiz rivojini yanada kamol toptirish uchun barchamiz birdek ma'sulmiz.

Vatanparvarlikda jismonan barkamollik va etuklikning ahamiyati "Bilimga chanqoq, iste'dodli yoshlarni topib, ularni vatanga fidoyi insonlar qilib tarbiyalash muqaddas vazifamizdir" Vatan, xalq shuhratini dunyoga tarannum etishda jismoniy tarbiya va sportning o'rni beqiyosdir. Jahon miqyosidagi

turli nufuzli musobaqalarda o‘zbek yoshlari erishayotgan g‘alabalar bu haqiqatni tasdiqlab turibdi. CHunki barkamol avlod-O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori va kelajak asosi hisoblanadi. Ona Vatan buyuk bo‘lmog‘i uchun shu zaminda yashovchilar aqlan va jismonan sog‘lom bo‘lishlari shart. Ma’naviy va jimoniy barkamol avlodni tarbiyalash-faqat milliy ehtiyojgina emas, balki umumdavlat ahamiyatiga molik masala hisoblanib, u- ko‘pmillatli Vatanimizda tug‘ilib o‘sgan, tomir yoygan barcha qardosh xalqlar uchun birday ezgu maqsaddir. Lev Tolstoyning mashhur so‘zi bilan aytganda: “Ma’nan sog‘lom bo‘lish uchun jisman bardam bo‘lmoq kerak”. YUrtimiz kelajagi uchun sog‘lom avlodni tarbiyalash hamda voyaga etkazishda jismoniy tarbiyaning ahamiyati katta. So‘nggi yillarda jismoniy tarbiya va sport o‘quvchi-yoshlar hayotining ajralmas qismiga aylanib bormoqda. Mamlakatimiz o‘tgan qisqa davrda bolalar sportini rivojlantirish sohasida muayyan yutuqlarga erishdi va bugungi kunda joylarda sportga qiziqish izchil kuchayib borib, sportchi, epchil va chaqqon, mard va jasur yigit-qizlarimizni mashhurlikda dunyo tan olmoqda. Sport nafaqat jismoniy, balki ma’naviy kamolotga etishishda ham muhim omildir. U irodani toblaydi, aniq maqsad sari intilish, qiyinchiliklarni bardosh va chidam bilan engishga o‘rgatadi. Inson qalbida g‘alabaga ishonch, g‘urur va iftixor tuyg‘ularini tarbiyalaydi. YUrtboshimiz ta’kidlaganlaridek, sog‘lom, bilimli va fidoyi farzandlari bo‘lgan xalq, albatta o‘zining buyuk kelajagini barpo etadi. Haqiqatdan ham “Hech bir narsa mamlakatni sport kabi tezda dunyoga mashhur qila olmaydi”. “Sport odamni mard, matonatli, bardoshli qilib tarbiyalaydi”. Tarix va ajdodlar qoldirgan buyuk ma’naviy meros va milliy qadriyatlarimizdan ma’lumki, qadimda ota-bobolarimiz o‘z nasllarini umumbashariy tuyg‘ular, o‘lmas SHarq falsafasi, milliy qadriyatlarimiz ruhida tarbiya qilib kelganlar va ular asrlar davomida tilimizni, dilimiz va dinimizni, o‘zbekning o‘zligini har tomonlama asrab-avaylab, barkamol avlodlarni voyaga etkazishni asosiy maqsad qilib qo‘yganlar. Darhaqiqat, bunday fazilatlar asl e’tiboriga ko‘ra bizning zaxmatkash xalqimizga munosib ish bo‘lib, biz avlodlar bu bilan har qancha faxrlansak arziydi. Mamlakatimizda hukumatimiz tomonidan mustaqilligimizning ilk yillaridanoq sog‘lom avlod tarbiyasi eng ustuvor vazifa deb belgilanib, barkamol avlodni tarbiyalash masalasi davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Zero, Prezidentimiz ta’kidlaganlaridek, “Har qanday insonning eng mo‘‘tabar orzusi, astoydil intilgan asosiy maqsadi-sog‘lom, barkamol avlodni tarbiyalash, har tomonlama komil insonni voyaga etkazishdan iborat”dir. Mamlakatimizda jismoniy va ma’naviy barkamol avlodni voyaga etkazish masalasi biz uchun umummilliy, umumdavlat miqyosidagi vazifa bo‘lib, bu ezgu maqsad yo‘lida amalga oshirayotgan ishlarimizni izchil va qat’iyatlik bilan davom ettirish bugungi siyosatimizning diqqat markazida turibdi. Mamlakatimizda ta’lim tizimini takomillashtirish, Vatan ravnaqini ta’minlaydigan yosh avlodni tarbiyalab voyaga etkazish masalalariga jiddiy e’tibor berilmoqda. Bu borada «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonun hamda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ni qabul qilinishi katta ahamiyatga ega. YOsh avlodni har tomonlama: aqliy, axloqiy va jismoniy jihatdan rivojlanishida jismoniy tarbiya asosiy o‘rinlardan birini egallaydi. SHuning uchun O‘zbekiston Respublikasining «Jismoniy tarbiya va sport to‘g‘risida»gi qonunida «Maktabgacha yoshdagi bolalar, o‘quvchilar, talabalar salomatligini asrash va mustahkamlash, ularda jismoniy barkamollik ehtiyojini shakllantirish maktabgacha tarbiya muassasalari va o‘quv yurtlarining asosiy vazifasi hisoblanadi» deyiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimov va mashhur faylasuflarning barkamol avlodni tarbiyalashda ta’lim-tarbiya va sportning ahamiyati haqida xikmatga aylangan fikrlari: “Farzandlarimizni sog‘lom o‘stirish, ham ma’naviy, ham jismoniy nuqtai nazardan havas qiladigan barkamol avlodni o‘stirish, yoshlarimizni sport orqali “parvoz” qilishiga erishish, bolalar sportining rivoji Vatanga sadoqat uyg‘otishi va kelajakka ishonch tug‘dirishi kerak”.

Karomatovich I. A. PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL SUPPORT OF YOUNG TEAM ATHLETES //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 02. – С. 1011-1016.

Ibragimov A. K. DEVELOPING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF TEACHERS AS A PEDAGOGICAL PROBLEM //E-Conference Globe. – 2021. – С. 333-338.

Karomatovich I. A. METHODS OF TEACHING CHILDREN FOR MOVEMENT ACTIVITIES IN THE PROCESS OF PHYSICAL EDUCATION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – Т. 3. – №. 1. – С. 242-249.

Ibragimov A. K. Catalog of training tasks for training special endurance of young girl handball players. Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal. Year: 2020, Volume: 10, Issue: 11. P: 486-492. DOI: 10.5958/2249-7137.2020. 01410. X.

Narzullayev, Farrux. "Qizlar sporti yo'nalishi bo'yicha tahsil olayotgan qizlarning yengil atletika darslarida kuch siaftlarini rivojlantirishning pedagogik asoslari." *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz)* 1.1 (2020).

Ashrapovich, N. F. (2021). Determination of physical development of primary school students through national movement games. *Middle European Scientific Bulletin*, *11*.

Ashrapovich, N. F. (2022). FORMS OF CONTROL OVER THE PROFESSIONAL AND PEDAGOGICAL ACTIVITY OF THE TRAINER AND ITS PEDAGOGICAL SIGNIFICANCE. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(1), 372-379.

Narzullayev, Farrux Ashrapovich, and Dinara Olimovna Begimkulova. "Sport psixodiagnostikasi fanini o'qitishda ta'lim texnologiyalardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari." *Science and Education* 3.4 (2022): 1724-1730.

Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – Т. 10. – С. 470-471.

Abdueva S. S. Q. Determining the speed and strength of 14-15 year old handball players in jumping //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2020. – Т. 10. – №. 11. – С. 1212-1220.

Abdueva S. S., Khurbonov S., Sabirova N. Evolution of physical performance and techniques of handball girls aged 11-12 //International Journal of Advanced Research in Science, Engineering and Technology (IJARSET). – 2019.

Abdueva S. S. Activities that increase children's interest in the sport of handball //Innovatsionnoerazvitienauki I obrozovaniemejdunarodnayanauchno-prakticheskayakonferensiya. – 2020.

Rasulovna S. N. THE PLACE OF PHYSICAL TRAINING AND SPORTS IN THE LIFE OF SCHOOL STUDENTS //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 306-312.

Rasulovna S. N. TOOLS FOR DEVELOPING SPECIAL PHYSICAL TRAINING AND PHYSICAL QUALITIES IN SPORTS GAMES //E-Conference Globe. – 2021. – С. 299-305.

Sabirova Nasiba Rasulovna. Basics and Advantages of Individual Training to Increase Technical and Tactical Training of Basketball Players. AMERICAN JOURNAL OF SOCIAL AND HUMANITARIAN RESEARCH. ISSN: 2690-9626 Vol.3, No 1, 2022

Akmalovich, D. B., Khalilovich, T. M., Rasulovna, S. N., & Savrievich, F. F. (2020). Psychological impact of football games to the formation of individuality of the student. *Journal of Critical Reviews*, *7*(6), 466-469.

Сабирова Н. Р. Значение физической культуры в современном обществе //Проблемы педагогики. – 2020. – №. 6 (51).

Усмонов, Ш. Х., Самадов, С. С., & Фармонов, А. Ч. (2021). Физкультурно-спортивные интересы и мотивационные установки студентов. *Вопросы науки и образования*, (4), 129.

Xujamurodovich, U. S. (2022). CORRECTIONS IN JUMPING IN THE DEFENSIVE BLOCK AGAINST AN OPPONENT IN VOLLEYBALL. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, *3*(1), 442-450.

Azimovna F. M. The quality assessment technology and development techniques in volleyball players //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2021. – Т. 2. – №. 04. – С. 242-248.

Azimovna F. M. et al. Educational importance of physical education, sports and health measures in higher educational institutions //E-Conference Globe. – 2021. – С. 321-325.

Azimovna F. M. Formation of spiritual and moral values of pupils in physical education lessons //Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2020. – Т. 9. – №. 11. – С. 99-103.

Nematovich K. S. Abduyeva Sitorabonu Savriddin kizi, Fatullayeva Muazzam Azimovna, Kurbanov Shukhrat Kuldoshevich. Using of innovation terms in physical education and sport lessons and their social and educational features //Journal of Critical Reviews. doi. – Т. 10. – С. 470-471.

Салимов, Г. М., Дустов, Б. А., Фарманов, У. А., & Рахмонов, Р. Р. (2020). Показатели констатирующего этапа экспериментальной работы по физическому развитию учеников 7-10 лет общеобразовательных организаций Узбекистана. *Педагогическое образование и наука*, (1), 91-97.

Akmalovich, Dustov Bakhtiyor. "Acmeological peaks of a sports teacher and coach." *Middle European Scientific Bulletin* 11 (2021).

Akmalovich, D. B. (2020). Organization of independent work of students in the process of physical education. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, *9*(11), 120-123.

Safarova Rokhat G. Ways and factors ofoptimization of the content of general secondary education in today's world // Образование через всю жизнь: непрерывное образование в интересах

устойчивого развития. 2012. №2 (eng). URL: https://cyberleninka.ru/article/n/ways-and-factors-ofoptimization-of-the-content-of-general-secondary-education-in-today-s-world (дата обращения: 09.05.2022).

Мухитдинова Н.М. Абитова Ж.Р. Механизмы интеллектуального развития дошкольников с помощью физических занятий // Проблемы педагогики.- 2020- № 3 (48) с 79-81

Мухитдинова Н.М. Методология физических упражнений и игр в дошкольних образовательных организациях // Проблемы науки-2020-№9 (57) с 81-83

Мухитдинова Н.М. Эшов Э. Improvement of psychology and pedagogical process on physical training // Intellectual Archive 2018 с 93-96

Djurayeva Maxasti Zokirqizi "The emotion training system for atudents of preschool education for sports gymnastics sports competitions" 88-101 betlar. International Journal of Advanced Research in Monagement and Social Sciences. Vol.1 №2 February 2022

Джураева Махасти Зокировна "Характеристика эмоционально –волевой готовности личности к спортивной деятальности" 169-171 betlar. Россия-Таджикистан –Узбекистан. молодежь и развитие духовной культуры общества: актуальные проблемы и перспективы их решения. 22апреля 2022г.

Маъмуров Б. Б. Бўлажак ўқитувчиларни шахсга йўналтирилган таълим-тарбия жараёнини лойиҳалашга тайёрлашда қўлланиладиган тамойиллар. Современное образование (Узбекистан), 2017. https://cyberleninka.ru/article/n/b-lazhak-ituvchilarni-shahsga-y-naltirilgan-talim-tarbiya-zharayonini-loyi-alashga-tayyorlashda-llaniladigan-tamoyillar

Mamurov B. B. The Need to Prepare Future Teachers to Design a Student-Centered Educational Process. Eastern European Scientific Journal, 2017. http://journale.auris-verlag.de/index.php/EESJ/article/viewFile/600/596

Мамуров Б.Б., Махмудов М.Х. Акмеологическая составляющая образовательной культуры учителя. философские и методологические. https://www.elibrary.ru/item.asp?id=36679921

B Mamurov, A Mamanazarov, K Abdullaev, I Davronov. Acmeological Approach to the Formation of Healthy Lifestyle Among University Students. III International Scientific Congress Society of Ambient …, 2020. https://www.atlantis-press.com/proceedings/isc-sai-20/125937241

ББ Мамуров. Акмеологический подход к воспитанию молодого поколения в наследии предков. Педагогическое образование и наука, 2016. http://www.manpo.ru/manpo/publications/ped_obraz/n2016_03.pdf#page=147

Маъмуров Б.Б. Маманазаров А.Б. Условия развитие у будущих учителей навыков проектирования учебного процесса на основе акмеологического подхода. https://www.elibrary.ru/item.asp?id=37269472

Файзиев Я. З., Зиёев Д. Я. У. краткий исторический обзор развития физического воспитания и спорта //Academy. – 2020. – №. 9 (60).

Файзиев Я. З., Кузиева Ф. Эффективности использования национальных средств физического воспитания в учебном процессе //Вестник магистратуры. – 2020. – №. 3-1. – С. 95.

U. A. Fayzieva, M. T. Khikimova. Conditions of effectiveness of pedagogical communication. https://mbukckslg.ru/en/usloviya-uspeshnogo-pedagogicheskogo-obshcheniya-ego-funkcii-organizaciya.html

Fayziyeva Umida Asadovna Saidnazarova Gulshan Bolta qizi. "Ta'lim texnologiyalari" fanidan seminar mashg'ulotlarini bajarish bo'yicha metodik ko'rsatma. http://213.230.96.51:8090/files/ebooks/Iqtisodiyot/TALIM_TEXNOLOGIYALARI.pdf